

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/2025.27.12.Tib.02.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

OYBEKOVA GULASAL SAIDAZIM QIZI

**YOSHLARDA GIPERTONIYA KASALLIGI RIVOJLANISHIDA
SIMPATOADRENAL TIZIMI FUNKSIONAL FAOLLIGINING
BUZILISHLARI VA PROFILAKTIKA CHORALARI**

14.00.06 – Kardiologiya

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of the dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Oybekova Gulasal Saidazim qizi

Yoshlarda gipertoniya kasalligi rivojlanishida simpatoadrenal tizim funksional faolligining buzilishlari va profilaktika choralari 3

Ойбекова Гуласал Саидазим кизи

Нарушения функциональной активности симпатoadренальной системы в развитии гипертонической болезни у молодых и меры профилактики..... 27

Oybekova Gulasal Saidazim kizi

Disturbances of the functional activity of the sympathoadrenal system in the development of hypertension in young individuals and preventive measures..... 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/2025.27.12.Tib.02.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

OYBEKOVA GULASAL SAIDAZIM QIZI

**YOSHLARDA GIPERTONIYA KASALLIGI RIVOJLANISHIDA
SIMPATOADRENAL TIZIMI FUNKSIONAL FAOLIGINING
BUZILISHLARI VA PROFILAKTIKA CHORALARI**

14.00.06 – Kardiologiya

**TIBBIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.3PhD/Tib3518 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta (o'zbek, rus, ingliz (resume)) tilida Ilmiy kengashning veb-sahifasida www.adti.uz) va «ZiyoNet» (www.ziynet.uz) axborot-ta'lim portalida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xujamberdiyev Mamazair Ahmedovich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Saloxiddinov Adil Saloxiddinovich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Mullabayeva Go'zal Uchqunovna
tibbiyot fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi 2026 yil «06» oktyabr soat 13⁰⁰ da Andijon davlat tibbiyot instituti huzuridagi DSc.06/2025.27.12.Tib.02.03 raqamli Ilmiy kengash majlisida o'tkaziladi.

(Manzil: 170100, Andijon shahri, Yu.Otabekov ko'chasi, 1-uy; Tel/faks: (+998) 74-223-94-50, e-mail: info@adti.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat tibbiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (105 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon shahri, Yu.Otabekov ko'chasi, 1-uy; Tel.: (+998) 74-223-94-50).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «19» sentabr da tarqatildi.

(2026 yil «19» sentabr dagi 11 -sonli bayonnomasi).



Sh.K. Yusupova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

O.B. Nadjmitdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Z.S. Saloxiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi vaqtda gipertoniya kasalligi sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlarda eng keng tarqalgan xastaliklardan biri bo'lib, so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, katta yoshdagi aholining qariyb 40 foizini qamrab olgan va 1,3 milliarddan ortiq kishini tashkil etadi¹. JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda o'rtacha umr ko'rish davomiyligini oshirish sohasida muayyan yutuqlarga erishildi: 2020-yilga kelib o'rtacha umr ko'rish 6 yilga uzayib, 73 yoshdan oshdi. Umr ko'rish davomiyligining o'sishi bilan bir qatorda, nogironlik va o'lim ko'rsatkichlari ham ortib bormoqda. JSST ekspertlarining statistik ma'lumotlariga ko'ra, nogironlik va o'limga olib keluvchi asosiy sabablar sirasiga yurak-qon tomir kasalliklari hamda gipertoniya kasalligi bilan bog'liq insultlar kiradi.

JSST (2023) ma'lumotlariga ko'ra, zamonaviy davrning dolzarb muammolaridan biri gipertoniya kasalligining nafaqat keksalar, balki yoshlar, ya'ni mehnatga layoqatli va ijtimoiy faol yoshdagi shaxslar orasida ham keng tarqalayotganidir. Yoshlik davrida arterial bosimning ko'tarilishi ko'pincha surunkali toliqish, stress, uyqu yetishmovchiligi yoki haddan tashqari yuqori mehnat yuki bilan izohlanadi, bu esa kasallikni erta bosqichda aniqlashga to'sqinlik qilishi mumkin. So'nggi yillarda IT-sohasi vakillari orasida gipertoniya kasalligining rivojlanishi alohida e'tiborga loyiqdir. Dasturchilar va IT-mutaxassisleri jismoniy faollikning yetishmasligi, yuqori aqliy zo'riqish, tungi ish tartibi, uzoq davom etuvchi psixosotsial stress va uyqu sikllarining buzilishi kabi omillar ta'siriga duchor bo'lmoqda. Shu munosabat bilan, yoshlarda gipertoniya kasalligi rivojlanishining erta, boshlang'ich bosqichlarida simpatoadrenal tizimning funksional holatini baholash alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurak-qon tomir kasalliklarini erta aniqlash, samarali davolash va profilaktika qilishga qaratilgan davlat dasturlariga qaramay, mazkur tizim kasalliklari muammosi o'ta dolzarbligicha qolmoqda va hozirgacha to'liq yechimini topmagan. O'zbekiston Respublikasida yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish, ularni erta aniqlash, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish hamda onalar salomatligini muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Yoshlar, ayniqsa kasbiy stress va gipodinamiyaga moyil bo'lgan IT-sohasi xodimlari orasida gipertoniya kasalligi shakllanishining erta patogenetik mexanizmlarini aniqlash, biokimyoviy va instrumental ko'rsatkichlarni to'liq kompleks baholash hamda profilaktika choralarini ishlab chiqish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan davlat va ta'lim dasturlari, jumladan IT-sohasidagi loyihalar yoshlarning bandlik tuzilmasi va turmush tarzining tobora ko'proq transformatsiyalashuviga xizmat qilmoqda. «One Million Uzbek Coders» yirik milliy loyihasi millionlab o'zbekistonlik yoshlarni IT-ta'limga va masofaviy mehnatga jalb qildi. Mazkur jarayon o'z navbatida o'tirib ishlash davomiyligining oshishiga, ovqatlanish tartibining

¹ World Health Organization. Global hypertension report (update). Geneva: WHO; 2025.

o'zgarishiga, stress yuklamalarining kuchayishiga – ya'ni yurak-qon tomir kasalliklarining erta rivojlanish xavfini oshiruvchi omillarning kuchayishiga olib keladi. Loyihaning hisobot ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yilda ro'yxatdan o'tgan va ta'lim olganlar soni bir million kishidan oshgan².

Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar gipertenziya patogenezini mexanizmlarini yanada chuqurroq tushunish, shuningdek, uni tashxislash, davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish imkonini beradi. Yuqorida keltirilgan holatlar mazkur tadqiqotimiz yo'nalishini tanlash va maqsadini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4891-son «Tibbiy-profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali aholi salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-yanvardagi PQ-103-son «Yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va ularni davolash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil

11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni hamda mazkur sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusining respublikadagi ilmiy-tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning VI. “Tibbiyot va farmakologiya” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish, erta aniqlash va davolashga qaratilgan davlat dasturlari amalga oshirilayotganiga qaramay, muammo hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda [Shlahto E.V., 2019; Kurbonov R.D., 2020; Rizayev D.A. 2022].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST)ning 2023 yilgi epidemiologik tadqiqotlari ma'lumotlariga ko'ra, o'limning asosiy sababi gipertoniya kasalligi bilan bog'liq [World Health Organization. Global report on hypertension: the race against a silent killer. Geneva: WHO; 2023]. Buni GKni kasallanish va o'limning yetakchi sabablaridan biri sifatida ko'rsatgan oldingi tadqiqotlar ham tasdiqlaydi [Chazova I.Ye., 2012; Shalnova S.A., 2015; Kurbonov R.D., 2022; 2023; Fozilov X.G., 2023, 2024; Xujamberdiyev M.A., 2023, 2024].

Ma'lumki, GKni erta diagnostika qilish kardiologiyaning asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Ro'yxatga olingan kasallanish ko'rsatkichi haqiqiy tarqalganlik darajasidan 2,3–2,4 baravar past [WHO, 2020; 2023].

Ko'pgina zamonaviy tadqiqotchilar va mualliflar GKning keskin yosharib borishini turmush tarzining buzilishi, emotsional labillik, stressli vaziyatlarga yuqori sezuvchanlik, moslashuvga past tolerantlik, ovqatlanishning buzilishi hamda yurak-qon tomir kasalliklari xavf omillarining o'zaro bog'liqligi bilan izohlaydilar [Mills K.T., Stefanescu A., He J. 2020; Shin D., Choi J.M., Lee H.Y.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6079-son Farmoni.

2023; Meher M., Sahu T., Sahu S. 2023; Bazdyreva E.I., et al. 2023; Carey R.M., Whelton P.K. 2023].

Muammoning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi uchun ham saqlanib qolmoqda, chunki gipertoniya kasalligi muhim tibbiy-ijtimoiy muammo bo'lib qolmoqda [Kurbanov R.D. 2024, Fozilov X.G. 2024]. JSST ekspertlarining ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yil yakuniga kelib O'zbekistonda kasallanish ko'rsatkichlari ayollar o'rtasida 9 foizga, erkaklar o'rtasida esa 15 foizga o'sishi kuzatilgan. So'nggi yillarda AG bilan kasallangan yosh bemorlar sonining ortib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Yosh shaxslardagi GK patogenezi va davolash masalalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy nashrlar mavjud bo'lishiga qaramay, uning tarqalganligi, diagnostikasi, davolashni tashkil etish va profilaktikasiga oid hal etilmagan vazifalar hanuzgacha ko'p. So'nggi yillarda simpatoadrenal tizimning (SAT) gipertoniya kasalligi patogenezidagi rolga katta ahamiyat berilmoqda. Tashqi ta'sirlar ostida katexolaminlarning shoshilinch ajralib chiqishi stressning dastlabki namoyon bo'lishi hisoblanadi, simpatik nerv tizimi tonusining oshishi esa yoshlarda GK rivojlanishining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi.

Adabiyotlarda katexolaminlar metabolizmi va SATning funksional faolligini o'rganishga bag'ishlangan mavjud ma'lumotlar qarama-qarshi bo'lib, SAT holatini belgilovchi KA metabolizmining to'liq sikli har doim ham to'liq o'rganilmagan [Xujamberdiyev M.A. 2023; Mamajonova Z.K. 2024]. Yuqorida bayon qilingan ma'lumotlar biz olib borgan tadqiqotning yo'nalishi va maqsadini belgilab berdi.

Olingan ma'lumotlar, ayniqsa o'tirib ishlash ulushi yuqori va psixoemotsional yuklamalar mavjud bo'lgan kasbiy guruhlarda (shu jumladan IT-sektorda), maqsadli skrining algoritmlari va birlamchi profilaktika dasturlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, natijalar yurak-qon-tomir kasalliklariga (YQTK) qarshi kurash bo'yicha milliy dasturlar doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mos keladi, jumladan, O'zR Prezidentining PQ-103-son qarorida nazarda tutilgan chora-tadbirlar ijrosi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat tibbiyot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №02-4974-loyiha doirasida bajarilgan: «O'zbekistonning turli hududlarida noinfeksion kasalliklar epidemiologiyasini o'rganish, davolash, erta tashxislash va profilaktika usullarini optimallashtirish, ilg'or innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish».

Tadqiqotning maqsadi surunkali stress ta'siriga uchragan yoshlarda KA metabolizmi va SAT funksional faolligidagi buzilishlarni erta aniqlash, aniqlangan buzilishlarni korreksiya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

gipertoniya kasalligi aniqlangan yoshlarda katexolaminlar - adrenalin, noradrenalin, dofamin, ularning o'tmishdoshi DOFAning sutkalik ekskresiyasi orqali SATning funksional holatini o'rganish va katexolaminlar ekskresiyasining sutkalik (sirkad) ritmidagi o'zgarishlarni aniqlash;

gipertoniya kasalligi bilan ogʻrigan yoshlarda katexolaminlar dezaminlanishining yakuniy mahsuloti boʻlgan vanililmindal kislota (VMK) miqdorini aniqlash;

qon zardobida katexolaminlar dezaminlanishining asosiy fermenti - monoaminoksidaza (MAO) faolligini oʻrganish;

yoshlarda qon zardobida malon dialdegidi (lipidlarning peroksid oksidlanishining (LPO)) ikkilamchi mahsuloti darajasini oʻrganish;

yoshlarda aniqlangan buzilishlarning oldini olish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida 25-44 yoshdagi 110 nafar erkaklar olingan, ulardan: 22 ta GK bilan kasallangan IT-mutaxassislar, 28 ta GK aniqlanmagan IT-mutaxassislar, 40 ta doimiy kasbiy bandlikka ega boʻlmagan GK bilan kasallangan shaxslar, yurak-qon tomir patologiyasining klinik belgilari boʻlmagan, yoshi taqqoslanadigan 20 nafar amalda sogʻlom erkaklar.

Tadqiqot predmeti: stressga moyil, IT sohasida ishlaydigan va gipertoniya kasalligi (GK) aniqlangan yoshlar, stressga moyil, IT sohasida ishlaydigan, lekin GK aniqlanmagan shaxslar, shuningdek, IT sohasida ishlamaydigan, GK aniqlangan uyushmagan aholi qatlamiga mansub shaxslar, hamda IT va GKsiz nazorat guruhidagi shaxslardan olingan qon zardobi va siydikdir.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda epidemiologik, umumklinik, biokimyoviy, instrumental va statistik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Oʻzbekiston Respublikasi sharoitida ilk bor gipertoniya kasalligi shakllanishining dastlabki bosqichlarida yosh shaxslarda simpatoadrenal tizimning funksional holati, lipidlarning peroksid oksidlanishi jarayonlari hamda arterial bosimning sutkalik profili kasbiy faoliyatga, xususan IT-kasbi bilan shugʻullanishga bogʻliq holda kompleks baholanib, arterial gipertenziyaga ega IT-mutaxassislarda simpatoadrenal tizim funksional faolligining buzilishi ilmiy jihatdan isbotlangan;

gipertoniya kasalligi bilan ogʻrigan yosh shaxslarda adrenalin, noradrenalin, dofamin va ularning oʻtmishdoshi DOFA sutkalik ekskresiyasining sirkad ritmidagi notekisliklar aniqlanib, mazkur buzilishlarning IT-kasbi bilan shugʻullanuvchi shaxslarda yaqqolroq namoyon boʻlishi ilmiy jihatdan isbotlangan;

katexolaminlar-adrenalin, noradrenalin, dofamin va ularning oʻtmishdoshi DOFA darajasi, vanililmindal kislotasi miqdori, monoaminoksidaza fermentativ faolligining pasayishi, malon dialdegid darajasining oshishi hamda arterial bosim sirkad ritmi buzilishlari oʻrtasida ishonchli korrelyatsion bogʻliqliklar aniqlanib, mazkur koʻrsatkichlarni stress-induksiyalangan arterial gipertenziyaning erta patogenetik markerlari sifatida qoʻllash imkoniyati asoslangan;

stressogen kasblarda ishlovchi yosh shaxslarda aniqlangan patogenetik buzilishlarni hisobga olgan holda, nomedikamentoz choralar, antioksidantlar (E vitamini, askorbin kislotasi, koenzim Q10), magniy preparatlari hamda klinik koʻrsatmalar boʻyicha selektiv β -blokatorlarni qamrab olgan individuallashtirilgan

patogenetik profilaktika va korreksiya chora-tadbirlari majmuasi ilk bor taklif qilinib, uni qo'llash zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati:

surunkali stressga moyil yosh shaxslarda arterial bosimni muntazam o'lchash (arterial bosimning sutkalik profili), biokimyoviy markerlarni (MDA, KA, VMK ekskresiyasi, MAO faolligi) nazorat qilish hamda psixoemotsional holatni (HADS/PSS-10) baholash stress yuklamalari sharoitida ishlovchi yosh shaxslarda AGni erta va ishonchli tashxislashga asos beradi hamda GKni o'z vaqtida aniqlash imkonini yaratadi.

olingan ma'lumotlar IT sohasida yoki ortiqcha stress yuklamasi mavjud bo'lgan tashkilotlarda ishlovchi yosh shaxslarda GK rivojlanishining profilaktik chora-tadbirlarini yanada ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

kasbiy IT-yuklama va GKning erta belgilari mavjud bo'lgan yosh shaxslarda aniqlangan patogenetik buzilishlarni hisobga olgan holda, nomedikamentoz choralar, antioksidantlar-E vitamini, askorbin kislotasi, koenzim Q10, magniy preparatlari hamda klinik ko'rsatmalar bo'yicha selektiv β -blokatorlarni qamrab olgan individuallashtirilgan profilaktika va korreksiya strategiyasini qo'llash maqsadga muvofiq.

simpoadrenal tizim, MAO faolligi va LPO jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ushbu yo'nalishda yangi tadqiqotlar va samarali davolash usullarini ishlab chiqish uchun asos yaratdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi shundaki, unda qo'llanilgan nazariy yondashuvlar va usullar, tanlangan va o'tkazilgan tadqiqotlarning metodik jihatdan to'g'riligi, tanlangan materialning mosligi asoslangan bo'lib, bir-birini to'ldiruvchi zamonaviy epidemiologik, umumiy klinik, biokimyoviy, maxsus va statistik tadqiqot usullari qo'llanilgan, ularning xalqaro va mahalliy tajriba bilan taqqoslanishi amalga oshirilgan, xulosa va natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati

O'tkazilgan tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan xulosalar va takliflar nazariy hamda amaliy qiymatga ega bo'lib, stress ta'sirlariga duchor bo'ladigan tashkil etilgan populyatsiyada SAS holati haqidagi zamonaviy tasavvurlarni kengaytirishga sezilarli hissa qo'shadi. Biogen aminlar metabolizmidagi ishtirok etuvchi asosiy ferment bo'lgan MAO faolligiga, shuningdek katexolaminlarning dezaminlanishining oxirgi mahsuloti bo'lgan vanililmindal kislotasi (VMK) darajasiga, lipidlarning peroksid oksidlanishi jarayonlari intensivligiga (MDA darajasi bo'yicha) va ularning o'zaro bog'liqligiga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu ko'rsatkichlarning majmuaviy tahlili ularning arterial gipertenziya patogenezidagi rolini aniqlashtirish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati stressga moyil bo'lgan va mehnatning tashkillashtirilgan shakllarida, xususan IT-kasblarda faoliyat yurituvchi shaxslarda arterial gipertenziyaning erta klinik kechish xususiyatlari va xavf omillarining ta'sirini aniqlashdan iborat. Olingan ma'lumotlar asosida SAS holatini inobatga olgan holda diagnostik, profilaktik va terapevtik chora-tadbirlarni optimallashtirishga qaratilgan maxsus algoritm ishlab chiqildi, bu esa davolash

usullarini takomillashtirishga, profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirishga hamda arterial gipertenziya asoratlari xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yoshlarda gipertoniya kasalligi rivojlanishida simpatoadrenal tizimi funksional faolligining buzilishlari va profilaktika choralari bo'yicha olingan natijalari asosida:

birinchi ilmiy yangilik: O'zbekiston Respublikasi sharoitida ilk bor gipertoniya kasalligi shakllanishining dastlabki bosqichlarida yosh shaxslarda simpatoadrenal tizimning funksional holati, lipidlarning peroksid oksidlanishi jarayonlari hamda arterial bosimning sutkalik profili kasbiy faoliyatga, xususan IT-kasbi bilan shug'ullanishga bog'liq holda kompleks baholanib, arterial gipertenziyaga ega IT-mutaxassislarda simpatoadrenal tizim funksional faolligining buzilishi ilmiy jihatdan isbotlanganligi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Namangan filialining 2025-yil 30-iyundagi 151/20-sonli buyrug'i hamda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filialining 2025-yil 6-oktyabrdagi 178-sonli buyrug'i bilan klinik amaliyotiga joriy etilgan (Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik kengashning 2026-yil 5-martdagi 4-sonli xulosasi). *Ijtimoiy samaradorligi:* yosh shaxslarda, ayniqsa IT-mutaxassislarda simpatoadrenal tizim funksional faolliigi, lipidlarning peroksid oksidlanishi jarayonlari va arterial bosimning sutkalik profilidagi buzilishlarni erta aniqlash xavf guruhlarini o'z vaqtida ajratish va maqsadli profilaktik choralarni belgilash imkonini beradi. *Iqtisodiy samaradorligi:* taklif etilgan kompleks diagnostik yondashuv bir nafar shaxs hisobiga 1 060 000 so'm byudjet mablag'ini tejash imkonini beradi. *Xulosa:* IT-mutaxassislarda simpatoadrenal tizim funksional faolligining buzilishi kasbiy faoliyat xususiyatlari bilan bog'liq holda ilmiy jihatdan isbotlangan bo'lib, bu gipertoniya kasalligi shakllanishining erta patogenetik mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi;

ikkinchi ilmiy yangilik: gipertoniya kasalligi bilan og'rigan yosh shaxslarda adrenalin, noradrenalin, dofamin va ularning o'tmishdoshi DOFA sutkalik ekskresiyasining sirkad ritmidagi notekisliklar aniqlanib, mazkur buzilishlarning IT-kasbi bilan shug'ullanuvchi shaxslarda yaqqolroq namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan isbotlanganligi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Namangan filialining 2025-yil 30-iyundagi 151/20-sonli buyrug'i hamda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filialining 2025-yil 6-oktyabrdagi 178-sonli buyrug'i bilan klinik amaliyotiga joriy etilgan (Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik kengashning 2026-yil 5-martdagi 4-sonli xulosasi). *Ijtimoiy samaradorligi:* katexolaminlar sutkalik ekskresiyasining sirkad ritmidagi buzilishlarni erta aniqlash simpatoadrenal tizim funksional holatini baholash va xavf guruhidagi shaxslarni individual kuzatish imkonini beradi. *Iqtisodiy samaradorligi:* adrenalin, noradrenalin, dofamin va ularning o'tmishdoshi DOFA ko'rsatkichlarini maqsadli aniqlash bir nafar bemor hisobiga 250 000 so'mdan 800 000 so'mgacha byudjet mablag'ini tejash imkonini beradi. *Xulosa:* katexolaminlar sutkalik ekskresiyasi sirkad ritmidagi buzilishlarning IT-mutaxassislarda yaqqolroq namoyon bo'lishi mazkur o'zgarishlarni gipertoniya kasalligining erta diagnostikasida qo'shimcha mezon sifatida qo'llash imkonini beradi;

uchinchi ilmiy yangilik: katexolaminlar-adrenalin, noradrenalin, dofamin va ularning o'tmishdoshi DOFA darajasi, vanililmindal kislotasi miqdori, monoaminoksidaza fermentativ faolligining pasayishi, malon dialdegid darajasining oshishi hamda arterial bosim sirkad ritmi buzilishlari o'rtasida ishonchli korrelyatsion bog'liqliklar aniqlanib, mazkur ko'rsatkichlarni stress-induksiyalangan arterial gipertenziyaning erta patogenetik markerlari sifatida qo'llash imkoniyati asoslanganligi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Namangan filialining 2025-yil 30-iyundagi 151/20-sonli buyrug'i hamda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filialining 2025-yil 6-oktyabrdagi 178-sonli buyrug'i bilan klinik amaliyotiga joriy etilgan (Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik kengashning 2026-yil 5-martdagi 4-sonli xulosasi). *Ijtimoiy samaradorligi:* katexolaminlar, vanililmindal kislotasi, monoaminoksidaza, malon dialdegid va arterial bosimning sutkalik ritmi ko'rsatkichlarini kompleks baholash stress-induksiyalangan arterial gipertenziyani erta aniqlash va asoratlarning oldini olishga qaratilgan choralarni o'z vaqtida belgilash imkonini beradi. *Iqtisodiy samaradorligi:* maqsadli biokimyoviy markerlarni qo'llash diagnostika jarayonini maqbullashtirish, ortiqcha tekshiruvlar hajmini kamaytirish va tibbiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. *Xulosa:* aniqlangan ishonchli korrelyatsion bog'liqliklar mazkur ko'rsatkichlarni stress-induksiyalangan arterial gipertenziyaning erta patogenetik markerlari sifatida qo'llash imkoniyatini asoslaydi;

to'rtinchi ilmiy yangilik: stressogen kasblarda ishlovchi yosh shaxslarda aniqlangan patogenetik buzilishlarni hisobga olgan holda, nomedikamentoz choralar, antioksidantlar (E vitamini, askorbin kislotasi, koenzim Q10), magniy preparatlari hamda klinik ko'rsatmalar bo'yicha selektiv β -blokatorlarni qamrab olgan individuallashtirilgan patogenetik profilaktika va korreksiya chora-tadbirlari majmuasi ilk bor taklif qilinib, uni qo'llash zarurati asoslanganligi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Namangan filialining 2025-yil 30-iyundagi 151/20-sonli buyrug'i hamda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filialining 2025-yil 6-oktyabrdagi 178-sonli buyrug'i bilan klinik amaliyotiga joriy etilgan (Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik kengashning 2026-yil 5-martdagi 4-sonli xulosasi). *Ijtimoiy samaradorligi:* stressogen kasblarda ishlovchi yosh shaxslarda aniqlangan patogenetik buzilishlarni hisobga olgan holda individuallashtirilgan profilaktika va korreksiya chora-tadbirlarini belgilash gipertoniya kasalligi rivojlanish xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktik yondashuvlarni takomillashtirish imkonini beradi. *Iqtisodiy samaradorligi:* taklif etilgan individuallashtirilgan profilaktika va korreksiya chora-tadbirlarini maqsadli rejalashtirish tibbiy xarajatlarni maqbullashtirish va byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish imkonini beradi. *Xulosa:* stressogen kasblarda ishlovchi yosh shaxslarda aniqlangan patogenetik buzilishlar asosida individuallashtirilgan profilaktika va korreksiya chora-tadbirlari majmuasini qo'llash zarurati asoslangan bo'lib, mazkur yondashuv gipertoniya kasalligining erta profilaktikasini takomillashtirish imkonini beradi.

Sog'liqni saqlash amaliyotiga «Yoshlarda gipertoniya kasalligi rivojlanishida simpatoadrenal tizimi funksional faolligining buzilishlari va profilaktika choralari»

nomli elektron dastur joriy etildi. Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 26-iyundagi DGU 40751 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shundan 7 tasi jurnal maqolalari, jumladan 1 tasi xorijiy va 6 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xotima, xulosalar, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Matn qismining hajmi 112 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida bajarilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, uning maqsadi va vazifalari asoslangan, dissertatsiya obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini sog'liqni saqlash amaliyotiga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Adabiyotlar sharhi" deb nomlangan I bobida epidemiologiya bo'yicha ilmiy ma'lumotlarning chuqurlashtirilgan tahlili, tanqidiy bahosi, umumlashtirilishi va tizimlashtirilishi o'tkazilgan bo'lib, unda yurak-qon tomir tizimi kasalliklarida simpatoadrenal tizimning funksional holati, katexolaminlar metabolizmi, monoaminoksidaza, shuningdek gipertoniya kasalligida lipidlarning peroksid oksidlanishi jarayonlarining ahamiyati yoritilgan. Yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlar ushbu tadqiqotning dolzarbligini yaqqol ko'rsatib beradi.

II bob "Tadqiqot materiali va usullari"da klinik material va tadqiqot usullarining umumiy tavsifi berilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Andijon shahar poliklinikalari va Andijon viloyati IT-Digital markazidan tanlab olingan, gipertoniya kasalligi aniqlangan IT faoliyati bilan shug'ullanuvchi -22 nafar yosh shaxs, IT faoliyati bilan shug'ullanuvchi gipertoniya kasalligi aniqlanmagan -28 nafar yoshlar, IT kasbi bilan shug'ullanmaydigan, uyushmagan aholi qatlamiga mansub- 40 nafar yosh shaxslar, hamda 20 nafar nisbatan sog'lom shaxslar olindi.

Jami 110 nafar erkak tekshirildi, kasbiy maqomi (mehnat faoliyati) va arterial qon bosimi darajasiga qarab tekshiriluvchilar 4 guruhga bo'lindi:

I-guruh: IT sohasida faoliyat yurituvchi, gipertoniya kasalligi aniqlangan (AB 140/90 mm sim.ust. va undan yuqori) 25-44 yoshdagi yosh erkaklar, o'rtacha yosh $33,2 \pm 0,9$ yil, $n=22$.

II-guruh: Stressga moyil, IT sohasida faoliyat yurituvchi, GK aniqlanmagan (AB 140/90 mm sim.ust.gacha bo'lgan) 25-44 yoshdagi yosh erkaklar, o'rtacha yosh $31,8 \pm 0,9$ yil, $n=28$.

III-guruh: Uyushmagan aholi orasidan bo'lgan, IT sohasida faoliyat yuritmagan gipertoniya kasalligi bilan xastalangan (AB 140/90-159/99 mm sim.ust.) 29-44 yoshdagi erkaklar, o'rtacha yosh $34,8 \pm 1,11$ yil, $n=40$.

Nazorat guruhi -29 yoshdan 44 yoshgacha bo'lgan, nisbatan sog'lom erkaklar, o'rtacha yosh $31,2 \pm 1,44$ yil, $n=20$.

Tadqiqotda epidemiologik, umumklinik, biokimyoviy, instrumental va statistik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Ma'lumotlar Statistica 6.0 dasturlar to'plami yordamida qayta ishlandi. Korrelyatsiya koeffitsiyentlarini hisoblash uchun Spearmanning rangli korrelyatsiya usuli qo'llanildi. Miqdoriy ko'rsatkichlar $M \pm m$ shaklida taqdim etilgan. Guruhlararo farqlarni baholash uchun Styudentning t-mezonidan, ulushlar o'rtasidagi farqlar ahamiyatliligi uchun esa Pirsonning χ^2 (xi-kvadrat) mezonidan foydalanildi. Farqlar $p < 0,05$ ahamiyatlilik darajasida statistik jihatdan ahamiyatli deb topildi.

III bob "Klinik, laborator va instrumental tekshiruv usullari natijalari"da ishtirokchilardan xabardor qilingan ixtiyoriy rozilik albatta olingan holda, Butunjahon Tibbiyot Assotsiatsiyasining Xelsinki deklaratsiyasi axloqiy standartlariga (2013-yilgi tahrir) to'liq muvofiq ravishda o'tkazilgan tadqiqotlar to'liq bayon etilgan.


Yosh, kasbiy faoliyat davomiyligi, zararli odatlarning mavjudligi, jismoniy faollik, uyqu davomiyligi, tana vazni, GKga irsiy moyillik, EKGdagi o'zgarishlar, shuningdek sistolik va diastolik arterial bosim ko'rsatkichlari baholandi (1-jadval).

1-jadval

Tadqiqot guruhlarida yosh, ijtimoiy, xulq-atvor va instrumental ko'rsatkichlarning qiyosiy tavsifi

Ko'rsatkichlar	I-guruh IT+ GK (n=22)	II-guruh IT GK yo'q (n=28)	III-guruh GK IT yo'q (n=40)	Nazorat, sog'lom (n=20)	Ishonchlilik
Yosh, yil	$33,2 \pm 0,9$	$31,8 \pm 0,9$	$34,8 \pm 1,11$	$31,2 \pm 1,45$	$p > 0,05$
Kasbiy faoliyat davomiyligi, yil	$3,8 \pm 0,6$	$3,7 \pm 0,5$	-	-	$p > 0,05$
Alkogol iste'moli, (%)	2 (9,1%)	4 (14,3%)	5 (12,5%)	-	$p > 0,05$
Chekish, (%)	4 (18,3%)*	6 (21,4%)	12 (30%)	-	*- $p < 0,05$ nazorat guruhiga nisbatan
Sport bilan shug'ullanish, (%)	4 (18,3%)	5 (17,9%)	5 (12,5%)	11 (55%)**	** $-p < 0,01$ barcha guruhlariga nisbatan
Uyqu davomiyligi, soat	$5,6 \pm 0,4$ *	$6,4 \pm 0,28$	$6,8 \pm 0,2$	$7,0 \pm 0,3$	* $p < 0,05$ nazorat guruhiga nisbatan
Tana vazni oshishi, (%)	3 (13,6%)	4 (14,3%)	8 (20%)	4 (20%)	$p > 0,05$
Semizlik, (%)	4 (18,3%)	7 (25%)	9 (22,5%)	-	$p > 0,05$
GKga irsiy moyillik, yo'q	1 (4,6%)	yo'q	11 (27,5%)*	-	$p < 0,05$ I,II-

(%)					guruhlarga nisbatan
Sistolik bosim, mm. simob.ust.	143,9±3,6**	134,2±2,4	146,3±2,4**	124,0±4,2	**p <0,01 nazorat guruhiga nisbatan
Diastolik bosim, mm. simob.ust.	93,8±1,8**	86,8±1,7	93,1±1,7**	79,2±3,3	**p <0,01 nazorat guruhiga nisbatan
EKG, o'zgarishlar (%)	8 (36,4%)*	6 (21,4%)	8 (20%)	0%	*p<0,05 nazorat va I,II- guruhlarga nisbatan




1-rasm. Tadqiqot guruhlarida arterial bosimning o'rtacha ko'rsatkichlari, mm.simob ust.

I-guruhda (IT-mutaxassislar gipertoniya kasalligi aniqlangan, n=22) sistolik arterial bosimning (SAB) o'rtacha darajasi 143,9±3,6 mm. simob ust., diastolik arterial bosimning (DAB) o'rtacha darajasi esa 93,8±1,8 mm.simob ust.ni tashkil etdi.

II-guruhda (gipertoniya belgilari bo'lmagan IT xodimlari, n=28) SAB 134,2±2,4, DAB esa 86,8±1,7 mm. simob ust.ni tashkil etdi.

III-guruhda (gipertoniya kasalligi bor, IT sohasida band bo'lmaganlar, n=40) mos ravishda 146,3±2,4 va 93,1±1,7 mm. simob ust., nazorat guruhida esa (sog'lom shaxslar, n=20) mos ravishda 124,0±4,2 va 79,2±3,3 mm. simob ust. bo'ldi (1-jadval,1-rasm).



2-rasm. Tadqiqot guruhlarida sutkalik profilni solishtirma tahlili

IT-mutaxassislarida ABning sutkalik profili bo'yicha patologik turlar (night-peaker va non-dipper) ustunlik qiladi, ular jami tekshirilganlarning 80 % ini tashkil etdi. ABning sutkalik profili bo'yicha eng yaqqol patologik turlar (night-peaker va non-dipper) I-guruh shaxslarida -25–44 yoshdagi, IT-faoliyat bilan shug'ullanuvchi va GK aniqlangan yosh shaxslarda kuzatildi, ularda ushbu ko'rsatkich jami 86,3 % ni tashkil etdi. Sutkalik profilning shunga o'xshash turlari II-guruhda 75 % ni tashkil etdi. Uyushmagan aholi orasida bunday turlar ulushi atigi 35 % ni, nazorat guruhida esa kuzatilmadi. Umuman olganda, IT-mutaxassislarning 40 % ida tungi vaqtda bosimning oshishi (night-peaker) qayd etildi, bu tungi vaqtda SAT giperaktivatsiyasini hamda sirkad ritmning buzilishini aks ettiradi (2-rasm).

IT-kasbiga ega bo'lgan yosh shaxslarning 40 % ida arterial bosimning fiziologik tungi pasayishi kuzatilmaydigan non-dipper turi aniqlandi. Aksincha, uyushmagan aholi guruhida fiziologik dipper turi ancha ko'p uchradi (55 %), nazorat guruhida esa - tekshirilganlarning 85 % ida kuzatildi (2-rasm). χ^2 -tahlil guruhlar o'rtasida ishonchli farqlar mavjudligini ko'rsatdi ($\chi^2=18,7$; $p<0,01$), bu esa IT sohasi kasbiy omillarining arterial bosimning sirkad ritmiga ta'sirini tasdiqlaydi.


Tekshirilgan shaxslarda psixoemotsional holat xususiyatlari tahlili.

Psixoemotsional holatni baholash HADS (Hospital Anxiety and Depression Scale) shkalasi yordamida o'tkazildi, u ikki subshkala komponentini o'z ichiga oladi: xavotirlanish (HADS-A) va depressiya (HADS-D).

I-guruhda xavotirlanishning o'rtacha darajasi 10,6 ballni tashkil etdi, bu IT kasbisiz GK guruhi ko'rsatkichlaridan 27,7 % ga yuqori bo'ldi, ushbu guruhda mazkur ko'rsatkich 8,3 ni tashkil etdi, bu esa o'z navbatida nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan 29,7 % ga yuqori bo'lib, 6,4 ni tashkil etdi.


I-guruhdagi IT-mutaxassislari+GKda xavotir shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 10,6 ballni, depressiya bo'yicha esa 9,4 ballni tashkil etdi, bu xavotir va depressiyaning subklinik darajasiga mos keladi hamda yuqori kognitiv yuklama,

stress va gipodinamiya bilan bogʻliq boʻlishi mumkin boʻlgan psixoemosional zoʻriqish mavjudligini aks ettiradi (3,4-rasmlar).



3-rasm. Xavotirlik va depressiyaning HADS shkalasi boʻyicha taqsimlanishi

Uyushmagan aholi vakillarida xavotirning oʻrtacha koʻrsatkichi 8,3 ball, depressiyaniki esa 7,1 ball boʻlib, bu norma va subklinik namoyon boʻlishlar chegarasida ekanligi aniqlandi (3,4-rasmlar).



4-rasm. Soʻrovnoma savollariga asosan HADS shkalasi boʻyicha ballarni taqsimoti


PSS-10 - Perceived Stress Scale soʻrovnomasi maʼlumotlariga koʻra, ballarning umumiy koʻrsatkichi 0-13 - stressning past darajasi, 14-26 - stressning oʻrtacha darajasi, 27-40 - stressning yuqori darajasi hisoblanadi.

GKga ega boʻlgan va IT faoliyati bilan shugʻullanuvchi yosh shaxslarda ishonchli ravishda yuqoriroq umumiy ball qayd etildi, oʻrtacha $28,9 \pm 0,7$ ($p < 0,001$), bu esa uyushmagan aholi guruhi bilan solishtirganda stressga yuqori sezuvchanlik koʻrsatadi. Gipertoniya kasalligi bilan xastalangan uyushmagan aholini qabul qilinadigan stressning oʻrtacha darajasi ustun boʻlib, ushbu guruhda oʻrtacha ball $22,8 \pm 4,7$ ni tashkil etdi.

I-guruhda IT faoliyati bilan shug'ullanuvchi va gipertoniya kasalligi aniqlangan shaxslarning 77,3%ida (n=17) yaqqol stressga sezuvchanlik namoyon bo'ldi. II-guruhda esa GKsiz, IT faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning 57,0% (n=16) yaqqol stressga sezuvchanlikni namoyon etdi (5-rasm).

III-guruhda esa GK bilan xastalanib, IT faoliyati bilan shug'ullanmaydigan shaxslarning faqat 30% (n=12) bunday reaktivlikni namoyon etdi.

Nazorat guruhida esa faqat 10% (n=2) stressga sezuvchanlikning o'rtacha darajasi aniqlandi, qolgan ishtirokchilarda stressga sezuvchanlikning past darajasi aniqlandi.



5-rasm. PSS-10 shkalasi bo'yicha kasbiy faoliyatga qarab gipertoniya kasalligi bilan og'rigan yoshlarning stressga sezgirlikni taqqoslash

Siydik bilan katexolaminlarning sutkalik ekskresiyasini o'rganish

Katexolaminlar (KA), jumladan dofamin va ularning oldingi mahsuloti DOFA ning sutkalik ekskresiyasini baholash natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Nisbatan sog'lom va tadqiq etilgan guruhlarda katexolaminlarning sutkalik ekskresiyasi

Guruhlar	A, mkg/sut	NA, mkg/sut	DA, mkg/sut	DOFA, mkg/sut
I-guruh IT+GK, (n=22)	31,4±0,4	220,5±0,8	924,2±1,5	64,2±1,2**
II-guruh IT GK yo'q, (n=28)	28,2±0,3*	200,5±0,8*	832,4±2,5*	60,1±1,0*
III-guruh GK IT yo'q (uyushmagan aholi), n=40	25,2±0,23*	190,15±1,04*	625,2±1,95*	58,4±0,9*
Nazorat, n=20	16,8±0,3	78,2±0,8	416,2±1,69	42,4±0,8

Izoh: * -guruhlar orasidagi farqlarning ishonchliligi $p < 0,05$

** -guruhlar orasidagi farqlarning ishonchliligi $p < 0,01$

GK bilan xastalangan, IT faoliyati bilan shug'ullanuvchi yosh shaxslarda katexolaminlar (A, NA, dofamin) va ularning oldingi mahsuloti DOFA ning siydik bilan sutkalik ekskresiyasini o'rganishda tadqiqotning birinchi sutkasida statistik jihatdan ishonchli oshish kuzatildi. Jumladan, siydik bilan erkin A ning sutkalik

ekskresiyasi $14,4 \pm 0,3$ mkg/sut., kon'yugirlangan A- $17,0 \pm 0,5$ mkg/sut., umumiy A- $31,4 \pm 0,4$ mkg/sut. ni tashkil etdi, bu mos ravishda nazorat ko'rsatkichlariga nisbatan 2,2 ga, 1,66 va 1,87 marotaba yuqori ($p < 0,001$) va III-guruhning xuddi shunday ko'rsatkichlariga nisbatan 32,1% ga (1,3 marta), 18,9% ga (1,19 marta), 24,6% ga (1,25 marta) yuqori bo'ldi ($p < 0,05$) (3-jadval).

3-jadval

Erkin, kon'yugirlangan va umumiy adrenalin (A) va noradrenalinning (NA) sutkalik ekskresiyasi ko'rsatkichlari

Tekshirilgan guruhlar	Adrenalin, mkg/sut.			Noradrenalin, mkg/sut.		
	erkin	kon'yugirlangan	umumiy	erkin	kon'yugirlangan	Umumiy
IT+GK, n=22	$14,4 \pm 0,3^{**}$	$17,0 \pm 0,5^{**}$	$31,4 \pm 0,4^{**}$	$108,0 \pm 0,8^{**}$	$112,5 \pm 0,9^{**}$	$220,5 \pm 0,8^{**}$
IT GK yo'q, n=28	$11,4 \pm 0,3^{**}$	$16,8 \pm 0,4^{**}$	$28,2 \pm 0,3^{**}$	$96,0 \pm 0,8^{**}$	$104,5 \pm 0,9^{**}$	$200,5 \pm 0,8^{**}$
GK IT yo'q, n=40	$10,9 \pm 0,3^*$	$14,3 \pm 0,3^*$	$25,2 \pm 0,23^*$	$79,8 \pm 1,0^{**}$	$110,3 \pm 1,0^{**}$	$190,1 \pm 1,04^{**}$
Nazorat, n=20	$6,55 \pm 0,2$	$10,25 \pm 0,3$	$16,8 \pm 0,3$	$26,6 \pm 0,6$	$51,6 \pm 1,0$	$78,2 \pm 0,8$

Izoh: * -nazorat guruhiga nisbatan farqlarning ishonchliligi $p < 0,05$

** -nazorat guruhiga nisbatan farqlarning ishonchliligi $p < 0,001$

II-guruh tekshiriluvchilarida siydik bilan erkin adrenalin (A) ning sutkalik ekskresiyasi darajasining statistik jihatdan ahamiyatli oshishi aniqlandi ($p < 0,001$): nazoratga nisbatan 1,74, kon'yugirlangan 1,64, umumiy A esa 1,68 marotaba yuqori bo'lib, mos ravishda o'rtacha $11,4 \pm 0,3$ mkg/sut., $16,8 \pm 0,4$ mkg/sut., $28,2 \pm 0,3$ mkg/sut. ni tashkil etdi ($p < 0,001$) (3-jadval).

I-guruhda siydik bilan noradrenalinning sutkalik ekskresiyasini o'rganishda quyidagi natijalar olindi: erkin NA miqdori $108,0 \pm 0,8$ mkg/sut., kon'yugirlangan NA- $112,5 \pm 0,9$ mkg/sut., umumiy NA - $220,5 \pm 0,8$ mkg/sut. ni tashkil etdi, bu mos ravishda nazorat ko'rsatkichlaridan 4,06, 2,03 va 2,56 barobarga yuqori bo'ldi ($p < 0,001$) (3-jadval).

II-guruh tekshiriluvchilarida siydik bilan erkin noradrenalin (NA) ning sutkalik ekskresiyasi darajasining statistik jihatdan ahamiyatli oshishi aniqlandi ($p < 0,001$), nazoratga nisbatan 3,61, kon'yugirlangan NA 2,03, umumiy NA esa 2,54 barobarga yuqori bo'lib, mos ravishda o'rtacha $96,0 \pm 0,8$ mkg/sut., $104,5 \pm 0,9$ mkg/sut., $200,5 \pm 0,8$ mkg/sut. ni tashkil etdi ($p < 0,001$) (3-jadval).

III-guruhni o'rganishda siydik bilan erkin noradrenalin (NA) ning sutkalik ekskresiyasi darajasining statistik jihatdan ahamiyatli oshishi aniqlandi, nazoratga nisbatan -3,0, kon'yugirlangan NA 2,14, umumiy NA esa 2,54 barobarga yuqori bo'lib, mos ravishda o'rtacha $79,8 \pm 1,0$ mkg/sut., $110,3 \pm 1,0$ mkg/sut., $190,5 \pm 1,04$ mkg/sut. ni tashkil etdi ($p < 0,001$) (3-jadval).

Siydik bilan DANing sutkalik ekskresiyani o'rganishda erkin DA miqdori $443,6 \pm 1,5$ mkg/sut., kon'yugirlangan DA- $480,6 \pm 1,6$ mkg/sut., umumiy DA- $924,2 \pm 1,54$ mkg/sut. ni tashkil etdi, bu mos ravishda nazorat ko'rsatkichlariga nisbatan 3,33; 1,7 va 2,22 barobarga yuqori bo'ldi ($p < 0,001$) (4-jadval). Erkin va umumiy DA ning sutkalik ekskresiyasi ko'rsatkichlari III-guruhdagi xuddi

shunday ko'rsatkichlarga nisbatan statistik jihatdan ishonchli ravishda 1,65 ga ($p<0,01$) va 1,48 barobarga ($p<0,05$) yuqori bo'ldi. III-guruhda siydik bilan erkin DA ning sutkalik ekskresiyasi $268,8\pm1,9$ mkg/sut., kon'yugirlangan DA- $356,4\pm2,0$ mkg/sut., umumiy DA- $625,2\pm1,95$ mkg/sut.ni tashkil etdi (4-jadval).

II-guruh tekshiriluvchilarida siydik bilan erkin dofamin (DA)ning sutkalik ekskresiyasi darajasining statistik jihatdan ahamiyatli oshishi aniqlandi ($p<0,001$): nazoratga nisbatan 3,03, kon'yugirlangan DA 1,51, umumiy DA esa 2,0 barobarga yuqori bo'lib ($p<0,001$), mos ravishda o'rtacha $403,8\pm2,5$ mkg/sut., $428,6\pm1,6$ mkg/sut., $832,4\pm2,5$ mkg/sut.ni tashkil etdi (4-jadval).

Nazorat guruhida siydik bilan erkin DA ning sutkalik ekskresiyasi $133,2\pm1,56$ mkg/sut., kon'yugirlangan DA- $283,0\pm1,8$ mkg/sut., umumiy DA- $416,2\pm1,69$ mkg/sut.ni tashkil etdi (4-jadval).

4-jadval


Erkin, kon'yugirlangan, umumiy dofaminning (DA) sutkalik ekskresiyasi ko'rsatkichlari

Tekshirilgan guruhlar	Dofamin, mkg/sut.		
	erkin	kon'yugirlangan	Umumiy
IT+GK, n=22	$443,6\pm1,5^{**}$	$480,6\pm1,6^{**}$	$924,2\pm1,54^{**}$
IT GK yo'q, n=28	$403,8\pm2,5^{**}$	$428,6\pm1,6^{**}$	$832,4\pm2,5^{**}$
GK IT yo'q, n=40	$268,8\pm1,9^*$	$356,4\pm2,0^*$	$625,2\pm1,95^*$
Nazorat, n=20	$133,2\pm1,56$	$283,0\pm1,8$	$416,2\pm1,69$

Izoh: * -nazorat guruhiga nisbatan farqlarning ishonchliligi $p<0,05$

** -nazorat guruhiga nisbatan farqlarning ishonchliligi $p<0,001$

I-guruhda DOFA ning sutkalik ekskresiyasi $64,2\pm1,2$ mkg/sut.ni tashkil etdi, bu nazorat guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan statistik jihatdan ishonchli ravishda 51,4 % ga (1,5 marta) yuqori bo'ldi ($p<0,001$) (6-rasm). II-guruhda DOFA ning sutkalik ekskresiyasi $60,1\pm1,1$ mkg/sut.ni tashkil etib, nazorat ko'rsatkichlaridan 41,8 % (1,42 marta) ga statistik jihatdan ishonchli yuqori bo'ldi. IT-faoliyatsiz GK bo'lgan yosh shaxslar guruhida DOFA ning sutkalik ekskresiyasi $58,4\pm1,0$ mkg/sut.ni tashkil etdi, bu nazorat guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan statistik jihatdan ishonchli ravishda 37,7 % ga (1,38 marta) yuqori bo'ldi ($p<0,001$). I-guruhda DOFA ning sutkalik ekskresiyasi III-guruh ko'rsatkichlaridan 9,9 % ga




yuqori bo'ldi ($p<0,05$) (6-rasm).

6-rasm. DOFA ning sutkalik ekskresiyasi ko'rsatkichlari, mkg/sut.

Katexolaminlarning dezaminlanishiga mas'ul bo'lgan asosiy ferment-monoaminoksidaza (MAO) ning qon zardobidagi fermentativ faolligi tahlili, arterial gipertenziyaga ega barcha tekshirilganlarda uning darajasi nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli darajada pasayganini ko'rsatdi (7-rasm).

Nazorat guruhida qon zardobida MAOning o'rtacha faolligi $7,0 \pm 0,3$ birlik/eks ni tashkil etdi. Tadqiq etilgan I, II, III-guruhlarda ferment faolligi nazorat guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan 38,9%, 37,5%, 36,1% ga pasaygan bo'lib, mos ravishda $4,3 \pm 0,03$ birlik/ekst., $4,4 \pm 0,03$ birlik/ekst., $4,5 \pm 0,03$ birlik/ekst. ni tashkil etdi ($p < 0,05$).

I, II, III-guruhlar o'rtasida MAO faolligi bo'yicha statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlanmadi ($p > 0,05$) (7-rasm).



7-rasm. Tadqiqot guruhlarida monoaminoksidaza (MAO) ning qon zardobidagi faolligi

5-jadval

Vanililmindal kislotani sutkalik ekskresiyasining ko'rsatkichlari, ($M \pm m$)

Tekshirilgan guruhlar	VMK, mkmol/sut.
IT+GK, n=22	$31,4 \pm 0,1^{**}$
IT GK yo'q, n=28	$28,2 \pm 0,1^*$
GK IT yo'q, n=40	$27,4 \pm 0,1^*$
Nazorat, n=20	$22,1 \pm 0,3$

Izoh: * -nazorat guruhiga nisbatan farqlarning ishonchliligi $p < 0,05$

** -nazorat guruhiga nisbatan farqlarning ishonchliligi $p < 0,01$


